O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
UCHQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 3 - oktabr 575-6-87-Q/22 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Uchqo‘rg‘on tumanida o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish normalari va tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25- moddalari, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni 12, 30-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktabrdagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish va o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 7-bandiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Uchqo‘rg‘on tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limining 2022 yil 22-avgustdagi №09-1/1-14 sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Uchqo‘rg‘on tumanida o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish tartibi (keying o‘rinlarda - Tartib) 1-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar tomonidan o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun cheklangan hajmlarda bepul foydalanish me'yorlari (keyingi o‘rinlarda - Me'yorlar) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Uchqo‘rg‘on tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (A.Umarov) jismoniy shaxslar tomonidan o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanishda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Tartib va Me'yorlarga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

4. Ushbu qaror “Yorqin hayot” gazetasining navbatdagi sonida rasman e'lon qilinsin hamda bir ish kuni ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Sobitxo‘jaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **J.N.Rizzayev**

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
575-6-87-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining - dagi – sonli qaroriga 1-ilova

Uchqo‘rg‘on tumanida o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish TARTIBI

1. Ushbu Tartib tuman hududida jismoniy shaxslar tomonidan yovvoyi o‘simliklarning texnik, dorivor xom-ashyosini, shuningdek, yovvoyi o‘simliklarni oziq-ovqat maqsadlari, hayotiy zarur ehtiyojlari uchun bepul g‘amlash(yig‘ish)dagi umumiy foydalanish tartibini belgilaydi.
2. Mazkur Tartib o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan maxsus foydalanishga tadbiq etilmaydi.
3. Mazkur Tartib quyidagi o‘simlik ob'ektlariga nisbatan amal qilmaydi:

aholi uy va shaxsiy tomorqalari, hususiy yer uchastkalari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuritishda maqsadli ekilgan madaniy o‘simliklar, ular mevalari (shu jumladan daraxt va buta mevalari), tez o‘suvchan daraxt va butalar mevalari;

yovvoyi o‘simlik dunyosi ob'ektlarini pitomnik va plantatsiyalarda ko‘paytirilgan turli o‘simlik hillari.

4. Yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik dunyosi ob'ektlarini, ularning qismlari, mevalari va mahsullarini atrof tabiiy o‘sish muhitidan ajratib olish deganda, - o‘simliklarni yig‘ish, terish, g‘amlash hamda o‘sish muhitidan ajratib olmasdan yoki fenologik kuzatuv, foto-videoga olish, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish, rekreatsion va estetik zavq olish tushuniladi.
5. O‘simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun bepul amalga oshiriladi.
6. Jismoniy shaxslarning hayotiy zarur ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik dunyosi ob'ektlarini, ularning qismlarini, mevalarini hamda mahsullarini atrof tabiiy muhitdan umumiy foydalanish uchun ajratib olish kishi boshiga bir yilga cheklangan miqdorda bepul amalga oshiriladi.

7. O‘simlik dunyosi ob'ektlaridan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun umumiy foydalanish o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishning quyidagi turlari bo‘yicha cheklangan hajmlarda bepul amalga oshiriladi:

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar texnik xomashyosini yig‘ish va tayyorlash;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar dorivor xomashyosini yig‘ish va tayyorlash;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig‘ish va tayyorlash;

o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan madaniy-ma'rifiy, o‘quv-tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish.

8. O‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq foydalanish;

o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish borasidagi buzilgan huquqlarining tiklanishi va o‘zlariga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi;

yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarga va ularning yashash faoliyati mahsulotlariga nisbatan mulk huquqiga.

9. O‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar quyidagi majburiyatlarni bajarishi lozim:

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida belgilangan qoidalarga, o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish normalari va normativlariga rioya etishi;

foydalanishga berib qo‘yilgan o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan oqilona foydalanishi;

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va takror ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, shuningdek biriktirilgan hududlarda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida idoraviy va (yoki) ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirishi;

o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish joylarida yong‘in xavfsizligiga

rioya etishi va yong‘inga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi, yong‘inlar chiqqan hollarda esa ularni o‘chirish choralarini ko‘rishi;

o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan maxsus foydalanganlik uchun haqni o‘z vaqtida kiritishi;

karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalarni, o‘simliklar kasalliklarini va begona o‘tlarni o‘z vaqtida aniqlash maqsadida o‘simlik dunyosi holati ustidan muntazam ravishda kuzatuvlar o‘tkazishi, ular aniqlanganda esa topilgan o‘choqlarni tugatish choralarini ko‘rishi;

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni amalga oshirishi;

boshqa o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilarning huquqlarini buzmasligi;

o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzgan holda yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq hajmda qoplash.

10. Jismoniy shaxslarning hayotiy zarur ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik dunyosi ob'ektlarini, ularning qismlari, mevalari va mahsullarini atrof tabiiy muhitdan umumiy foydalanish uchun ajratib olish miqdori davlat zaxira yer maydonlarida ushbu tartibga muvofiq va o‘rmon xo‘jaligidagi davlat organlari va boshqa idoralar egaligida bo‘lgan davlat o‘rmon fondi hududidagi o‘simlik ob'ektlaridan umumiy foydalanish (fuqarolar iste'moli va ehtiyoji uchun) yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bilan kelishilgan holda (roziligi bilan) amalga oshiriladi.
11. Qizil kitobga va Yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risidagi Konvensiya (CITES)ning I, II va III ilovalariga kiritilmagan, yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar, ularning qismlari, hayotiy faoliyat mahsulotlarini umumiy foydalanish uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq eksport qilingan holatlarda ruxsatsiz olib chiqiladi.
12. Yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni, ularning qismlarini olib kirish uchun to‘lov undirilmaydi.
13. O‘zbekiston Respublikasi hududida umumiy foydalanish me'yorlaridan ortiq va noqonuniy ravishda yig‘ilgan, tayyorlangan, shuningdek, sohaga oid qonun hujjatlari buzilgan holda uning hududiga olib kirilgan yoki olib chiqib

ketishga urinilgan holdagi o‘simlik dunyosi ob'ektlari tartibbuzarlardan olib qo‘yiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi yoki qo‘mitaning joylardagi hududiy organlari tomonidan ularni sotish huquqiga ega bo‘lgan savdo tashkilotlariga shartnomaviy narxlar bo‘yicha sotish uchun beriladi.

14. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

15. Jismoniy shaxslar o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda qoplashlari shart.

Zararni qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
575-6-87-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining - dagi – sonli qaroriga 2-ilova

Jismoniy shaxslar tomonidan o‘simlik dunyosi ob'ektlaridan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun cheklangan hajmlarda bepul foydalanish

ME’YORLARI

№	O‘simlik turi	Ajratib olish me'yorlari, (kishi boshiga)
1.	Zira (urug‘i)	10 gramm
2.	Dorivor moychechak (guli)	50 gramm
3.	Zirk (mevasi)	10 gramm
4.	Yovvoyi qizil do‘lana (mevasi)	100 gramm
5.	Kiyik o‘ti (barcha a'zolari)	25 gramm
6.	Gazanda o‘t (barcha a'zolari)	50 gramm
7.	Osiyo yalpizi (tanasi va bargi)	25 gramm
8.	Achambiti (tanasi)	50 gramm
9.	Dastarbosh (gullari)	10 gramm
10.	Zubturum (bargi)	25 gramm
11.	Chuchukmiya (ildizi)	100 gramm
12.	Bo‘ymadaron (gullari)	25 gramm
13.	Qirqbo‘g‘im (tanasi)	25 gramm
14.	Na'matak (mevasi)	100 gramm
15.	Isiriq (barcha a'zolari)	150 gramm
16.	Gulxayri (ildizi)	100 gramm
17.	Dalachoy (barcha a'zolari)	25 gramm
18.	Arpabodiyon (mevasi)	10 gramm
19.	Marvaridgul (guli, bargi)	25 gramm
20.	Suv qalampiri (tanasi)	50 gramm
21.	Tirnoqgul (tanasi)	25 gramm
22.	Ko‘ka (guli va bargi)	50 gramm
23.	Ermon (barcha a'zolari)	100 gramm
24.	Ruyan (barcha a'zolari)	50 gramm
25.	Sano (barcha a'zolari)	25 gramm
26.	Chakanda (barcha a'zolari)	100 gramm

27.	Valeriyana (bargi)	100 gramm
28.	Tog‘ rayhoni (tanasi, bargi)	50 gramm
29.	Danakli oqquray (tanasi)	100 gramm
30.	Adonis (tanasi, bargi)	25 gramm
31.	Zamburug‘ (tanasi)	1 kg
32.	Ravoch (barg bandi)	300 gramm
33.	Limon o‘t (tanasi)	100 gramm
34.	Sho‘ra (barglari, tanasi)	200 gramm
35.	Qoqi o‘t (tanasi, bargi)	100 gramm
36.	Marmarak (tanasi, bargi)	25 gramm
37.	Qaraqat (tanasi, bargi)	25 gramm
38.	Sachratqi (tanasi, ildizi)	100 gramm